


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI



Ro'yhatga olindi: MD-5A110901-2.01

2018 - yil "18" 08

**PEDAGOGIK TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI
FAN DASTURI**

Bilim sohasi:	100000 –	Gumanitar
Ta'lim sohasi:	110000 –	Pedagogika
Magistratura mutaxassisligi:	5A110901 –	Pedagogika nazariyasi va tarixi

Toshkent – 2018

Fan dasturi Oliy va o‘rtalik maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2018-yil “18” 08 dagi 4-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligining 2018-yil “25” 08 dagi 704-sonli buyrug‘i bilan ma’qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta’lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchi: Ro‘ziyeva D.I.

- Nizomiy nomidagi TDPU “Umumiy pedagogika” kafedrasи mudiri, pedagogika fanlari doktori

Taqrizchilar: Abdullayeva Sh.A.

Chirchiq pedagogika instituti qoshidagi xalq talimi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti professori, pedagogika fanlari doktori

Arslonov I.

- Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasи mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti O‘quv-uslubiy kengashida ko‘rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2018-yil 28 06 dagi 11-sonli bayonnomasi).

I.O‘quv fanining dolzarbliji va oliy kasbiy ta’limdagi o‘rnii

Mamlakatimizda yuz berayotgan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy o‘zgarishlar uzlucksiz ta’lim tizimida ham o‘z aksini topmoqda. Shu asosda ta’lim sifatini jahon andozalari darajasiga yetkazish eng dolzarb vazifaga aylandi.

Ushbu dastur pedagogik tadqiqotlarni metodologiyasi va pedagogning metodologik madaniyati; pedagogik tadqiqotlarning mantiqiy-gnoseologik modeli; pedagogik tadqiqotlarning metodologik tamoyillari; pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish texnologiyasini qamrab olgan.

Magistratura ta’lim bosqichining intihosi magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish bilan nihoyasiga yetadi. Shu sababli magistrant magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash uchun pedagogik tadqiqotlarni metodologiyasini mukammal egallashi va ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalana olish ko‘nikmalarinini egallashi zarur. Magistrlarni pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi bilan qurollantirishda mazkur fan muhim ahamiyatga ega.

II. O‘quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanning maqsadi – magistratlarni pedagogik tadqiqotlarni metodologiyasi va amalga oshirishga tayyorlash, metodologik madaniyatni tarkib toptirish.

Fanning vazifalari – magistrlarning pedagogik tadqiqotlarni metodologiyasining metodologik qoidalarini egallashlarini ta’minlash; ularning tadqiqotlarini tashkil etish va o‘tkazish mantiqini o‘zlashtirishlari uchun sharoit yaratish; magistrlarni magistrlik dissertatsiyasini bajarish jarayonida pedagogik tadqiqotlarni o‘tkazishga tayyorlashdan iborat.

“Pedagogik tadqiqotlarni metodologiyasi” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida magistr:

- pedagogik tadqiqotlarning mazmun-mohiyati;
- pedagogik tadqiqotlarning asosiy tushunchalar;
- metodologiyasi tushunchasi;
- Pedagogik tadqiqotlarni metodologiyasi tushunchasi;
- pedagogik tadqiqotlarda ilmiy dalillar va ularning roli;
- fundamental, amaliy va innovatsion pedagogik tadqiqotlarni amalga oshirish hsart-sharoitlari *bilimga*;
- pedagogik tafakkur uslublari;
- pedagogik tadqiqotlarning metodologik tamoyillari;
- pedagogik ilmiy tadqiqot metodlari;
- pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o‘tkazish;
- pedagogik tadqiqotlar samaradorligi mezonlarini aniqlash;
- pedagogik tadqiqotlarda tizimli yondashuv va ma’lumotlarni qayta ishslash texnologiyasini qo’llash *ko’nikma*;
- pedagogik tadqiqotlar samaradorligini baholash;
- pedagogik tadqiqot natijalarini interpretatsiya qilish;

– pedagogik tadqiqot ishlarini himoyaga tayyorlash va ommalashtirish malakasiga ega bo ‘lishi kerak.

III. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

1-Modul. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi nazariyasi

1-mavzu. Pedagogik tadqiqotlarning mazmuni va mohiyati

Ijtimoiy-gumanitar izlanish sifatida pedagogik tadqiqotlarning o‘ziga xosliklari. Pedagogika fani metodologiyasi bilim va faoliyat tizimi sifatida. Pedagogik tadqiqotlarning metodologik ta’mnoti va pedagogik refleksiyaga doir manbalari.

2-mavzu. Pedagogik tadqiqotlarning asosiy kategoriyalari va tushunchalari

Metododologik tadqiqot va maxsus ilmiy tadqiqot. Pedagogik ijodkorlik va uning o‘ziga xosliklari. Intuitsiya, zehn va pedagogik tafakkur. Pedagogik izlanish. Innovatsion faoliyat va innovatsion salohiyat. Tadqiqot loyihasi va dasturi.

3-mavzu. Pedagogik tadqiqotlarda ilmiy dalillar va ularning roli

Ilmiy dalilning mantiqiy-gnoseologik mohiyati. Pedagogik tadqiqotlarning mantiqiy-gnoseologik modeli. Empirik ma'lumotlar, misollar va illyustratsiyalar. Ilmiy dalilllar ilmiy bilimlarning tarkibiy qismi sifatida. Ilmiy dalillarning o‘ziga xos xususiyatlari.

4-mavzu. Pedagogik muammoni tanlash va pedagogik tadqiqot mavzularini shakllantirish

Pedagogik tadqiqotlar muammosi. Pedagogik tadqiqotlar muammosining turlari (information, kontseptual, kvalimetrik va tashkiliy-metodik) va darajalari (fenomenologik, kontseptual, eksperimental). Pedagogik tadqiqotlar mavzularini aniqlashtirishning metodologik me'yorlari. Tadqiqot mavzusining muhim belgilari.

5-mavzu. Pedagogik tadqiqotlarning dolzarbligini aniqlash

Tadqiqot muammosining dolzarbli. Tadqiqot muammosining dolzarbligini asoslash. Tadqiqot mavzusi va dolzarbligini asoslashda yo‘l qo‘yiladigan tipik xatoliklar.

6-mavzu. Pedagogik tadqiqotlar obyekti va predmeti

Tadqiqot obyekti va obyekt maydonini aniqlashtirish. Tadqiqot obyekti va predmetining muhim belgilari. Tadqiqot obyekti va predmetini aniqlashda yo‘l qo‘yiladigan tipik xatoliklar.

7-mavzu. Pedagogik tadqiqotning maqsad va vazifalari

Tadqiqotning maqsadi – ilmiy izlanishning ideal (bashorat qilinayotgan) natijasi. Tadqiqot maqsadini aniqlashga qo‘yiladigan metodologik talablar. Tadqiqotning ilmiy-nazariy va konstruktiv-normativ funktsiyalari.

8-mavzu. Pedagogik tadqiqotlar farazini belgilash

Tadqiqot gipotezasi – ilmiy dalillashni talab etuvchi farazlar tizimi. Tadqiqot farazining turlari. Tadqiqot farazini aniqlashga qo‘yiladigan asosiy talablar. Tadqiqot farazini belgilashda produktiv yondashuvning o‘rni.

2-Modul. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi

1-mavzu. Pedagogik tadqiqotlarning metodologik tamoyillari

Pedagogik fanlar metodologiyasining umumilmiy tamoyillari. Pedagogik tadqiqotlarning konkret-metodologik tamoyillari. Shaxsiy yondashuv. Faoliyatli yondashuv. Polisub’ektli yondashuv. Madaniy yondashuv. Antropologik yondashuv.

2-mavzu. Ilmiy izlanuvchining metodologik madaniyati

Ilmiy izlanuvchining metododlogik madaniyati – kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismi sifatida. Ilmiy izlanuvchida metodologik madaniyatni tarkib toptirish darajalari. Ilmiy izlanuvchida metododologik madaniyatni shakllantirish shart-sharoitlari.

3-mavzu. Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlarini tasniflash muammolari

Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlari tushunchasi. Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlari tasnifi va tavsifi. Pedagogik ilmiy tadqiqot metodlarining imkoniyatlari.

4-mavzu. Adabiyotlar va arxiv materiallarini o‘rganish, kuzatish, suhbat, so‘rov, test, eksperiment – empirik tadqiqot metodlari sifatida

Ilmiy-pedagogik bilimlarning manbalari: birlamchi manbalar, arxiv hujjatlari, dissertatsiya, avtoreferat, maqola va tezislar. Ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil etish usullari: adabiyotlar ro‘yxatini tuzish, konseptlashtirish, tezis yozish, tsitatalash, annotatsiya yozish, taqrizlash. Kuzatish – asosiy ilmiy tadqiqot metodlaridan biri sifatida. Kuzatishning turlari. Kuzatishning o‘ziga xos xususiyatlari. Tadqiqot metodi sifatida suhbatning muhim xususiyatlari. Suhbat metodini qo‘llashga qo‘yiladigan metododlogik talablar. So‘rov metodining asosiy shakllari. Test savollarini tuzish qoidalari. Test metodini qo‘llashga qo‘yiladigan talablar. Tabiiy eksperiment, laboratoriya eksperimenti, aniqlovchi eksperiment, shakllantiruvchi eksperiment. Eksperimentni amalga oshirish bosqichlari.

5-mavzu. Faoliyat natijalarini o‘rganish va germenevtik metodlar

Faoliyat natijalarini o‘rganish metodi tavsifi. Faoliyat natijalarini o‘rganish metodini qo‘llash qoidalari. Metofora, taqqoslash, allegoriya.

6-mavzu. Ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish va umumlashtirish metodi

Ilg‘or pedagogik tajriba – yangi g‘oya, yondashuv va texnologiyalar manbai. Ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish va umumlashtirish bosqichlari. Ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish va umumlashtirish usullari. Ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish va umumlashtirish qoidalalri.

3-Modul. Pedagogik tadqiqotlarning amaliyoti

1-mavzu. Pedagogik tajriba-sinov ishlari dasturini ishlab chiqish metodikasi

Pedagogik tajriba-sinov dasturining tuzilishi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari dasturini ishlab chiqish tamoyillari. Pedagogik tajriba-sinov ishlari dasturini amaliyotga tatbiq etish metodikasi.

2-mavzu. Pedagogik ilmiy tadqiqot jarayonini metodologiyasi

Pedagogik metodologiyasi – nazariy tadqiqot metodi. Pedagogik jarayon modeli – statik tizim sifatida. Ideallashtirish metodining metodologiyasi jarayonidagi o‘rni.

3-mavzu. Pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o‘tkazish bosqichlari

Pedagogik tadqiqotlarni tashkil etishning mantig‘i va tuzilishi. Tadqiqotni loyihalashtirish. Tadqiqotni amalga oshirish. Olingan natijalarni qayd etish va tahlil etish.

4-mavzu. Pedagogik ilmiy tadqiqotlar samaradorligini aniqlash mezonlari

Ta’limiy mezonlar va indikatorlar. Individual-shaxsiy rivojlanish mezonlari. Tarbiyalanganlik darajasini aniqlash mezonlari. Valeologik mezonlar. Ta’lim sohasini rivojlantirishning maxsus mezonlari va ko‘rsatkichlari.

5-mavzu. Pedagogik tadqiqotlarda matematik-statistik metodlar

Matematik-statistik metodlar: tanlamalar, gipoteza, boshlang‘ich gipoteza, tasodifiy miqdor, korrelyatsion bog‘lanish, tekshirish metodi, birinchi jinsli xato, ikkinchi jinsli xato, t-mezon, f-mezon, x^2 -mezon, ruxsat etilganlik mezoni, ozodlik darajasi, dispersiya, taqsimot funktsiyasi, kritik qiymat, bosh to‘plam, normal taqsimot.

6-mavzu. Pedagogik tadqiqotlarda tizimli yondashuv va ma’lumotlarni qayta ishlash texnologiyasi

Tizimli yondashuvning pedagogik tadqiqotlarni amalga oshirishdagi o‘rni. Elementlar, tizim osti qismlar va tizim orasidagi funksional munosabatlari. Tadqiqot manbaiga mos ma’lumotlarni qayta ishlash algoritmi.

7-mavzu. Fundamental, amaliy va innovatsion pedagogik tadqiqotlarni amalga oshirish shart-sharoitlari

Fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarga qo‘yiladigan talablar. Fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarni ishlab chiqich va rasmiylashtirish qoidalari. Fundamental, amaliy va innovatsion loyihalar natijalarini amaliyotga tatbiq etish metodikasi.

8-mavzu. Pedagogik ilmiy tadqiqot ishlarini himoyaga tayyorlash va ommalashtirish

Tadqiqot natijalari interpretatsiyasi. Tadqiqot natijalarini aprobatsiyadan o'tkazish. Tadqiqot natijalarini rasmiylashtirish. Dissertatsiyaning tuzilishi va mazmuni. Dissertatsiya himoyasi.

IV. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Pedagogika fani – pedagogik refleksiya obyekti sifatida.
2. Pedagogik tadqiqotlarning metodologik ta'minoti darajalari va manbalari.
3. Pedagogik tadqiqotlarda tizimli yondashuv.
4. Pedagogik tadqiqot muammosi.
5. Ilmiy tadqiqot mavzusini tanlash.
6. Ilmiy tadqiqotning dolzarbligini asoslash.
7. Ilmiy tadqiqot farazini belgilash.
8. Ilmiy tadqiqotning yangiliginini aniqlash.
9. Pedagogik tadqiqotning nazariy-amaliy ahamiyatini asoslash.
10. Pedagogik tadqiqotlarning mantiqiy-gnoseologik modeli.
11. Pedagogik tadqiqotlarning metodologik apparati va sifat mezonlari.
12. Pedagogik tadqiqotlarning metodologik vositalari.
13. Tadqiqotning empirik va nazariy darajalarida qo'llaniladigan metodlar (abstraktlash, analiz, sintez, induksiya, deduksiya, metodologiyasi).
14. Empirik tadqiqot metodlari.
15. Nazariy tadqiqot metodlari.

Seminar mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Seminar mashg'ulotlariga tayyorlanish jarayonida magistrlar pedagogik tadqiqotlarni metodologiyasiga oid darslik va o'quv qo'llanmalardan foydalangan holda, ma'ruza mashg'uloti jarayonida egallagan bilimlarini yanada boyitishadi hamda ko'nikma va malakalarga ega bo'lishadi.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Metodologiya tushunchasi.
2. Dialektika elementlari.
3. Ta'lim va tarbiya metodologiyasi.
4. Ziddiyat. Qonun va qonuniyat.
5. Dialektika qonunlari.
6. Metodologiyani tadqiq etish manbalari.
7. Deskriptiv va preskriptiv metodologiya.
8. Pedagogikaning metodologik asoslari.
9. Pedagogikadagi asosiy metodologik yondashuvlar.
10. Metodologik madaniyat – pedagogik faoliyat refleksiyasining natijasi sifatida.
11. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari.
12. Metodologiyada "refleksiya" tushunchasi.
13. Metodologik deduktsiya.

14. Tadqiqot metodlarini tanlash tamoyillari.
15. Ta’limda metodologik yaxlitlik.
16. Tadqiqot metodlarining metodologik asoslari.

VI. Asosiy va qo’shimcha o‘quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari

Asosiy adabiyotlar:

1. Чориев А., Чориев И. Педагогиканинг фанлараро боғлиқлик методологияси. – Т.: Фан, 2011.
2. Чориев А., Чориев И. Педагогика тарихи методологияси. – Т.: Фан, 2011.
3. Тўракулов Х.А., Ҳасанбоев Ж.Ж., Усманов Н.Ў., Алқаров И.Ш., Тўрақулов О.Х. Илмий тадқиқот асослари. – Т.: “Fan va texnologiya” нашриёти, 2011.
4. Краевский, В.В. Методология педагогического исследования: Пособие для педагога-исследователя. – Самара: Изд-во СамГПИ, 1994.
5. Чориев А., Чориев И. Педагогиканинг методологик асоси ва илмий тадқиқот методлари: Монография/Тошкент: Nishon Noshir, 2016.- 248 б.

Qo’shimcha adabiyotlar

6. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик-хар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Мажкамасининг 2016 йил якунлари ва 2017 йил истиқболлариига бағишланган мажлисдаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг нутқи// Халқ сўзи газетаси. 2017 йил 16 январ, №11
7. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргалиқда барпо этамиз. “Ўзбекистон” 2016.
8. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олийжаноб ҳалқимиз билан бирга қўрамиз. “Ўзбекистон” 2017
9. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев 2017—2021 йилларда Ўзбекистонни ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича харакат стратегияси. 7 февраль 2017 йил.
10. Барков, А.Г. Научный метод: возможности и иллюзии. – М., 1994.
11. Безрукова, В.С. Педагогика. Проективная педагогика: Учеб. пособие для пед. ин-тов и индустр.-пед. техникумов – Екатеринбург, 1996.
12. Брызгалова, С.И. Научно-педагогическое исследование. – Калининград, 1996.
13. Гершунский, Б.С. Философия образования для XXI века. – М., 1998.

Internet saatlari:

14. www. tdpu. uz
15. www. pedagog. uz
16. www. Ziyonet. uz
17. www. edu. uz
18. tdpu-INTRANET. Ped